



Publisher:  
Fast support and result LLC

# STDF

**SCIENCE TECHNOLOGY  
&  
DIGITAL FINANCE**

VOLUME|3 ISSUE|4  
SEPTEMBER|2025



zenodo



INDEX  COPERNICUS  
I N T E R N A T I O N A L



<https://bestjournalup.com/index.php/stdf>

VOLUME | 3 ISSUE | 4 SEPTEMBER | 2025

ТОМ | 3 ВЫПУСК | 4 СЕНТЯБРЬ | 2025

JILD | 3 SON | 4 SENTYABR | 2025

*ISSN:2992-9199*



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MEHNAT BOZORIDA AYOLLARNING IQTISODIY FAOLIYATINI OSHIRISH

**Nabixo'jayeva Dilafro'z Sobir qizi**

*Jizzax Sambhram Universiteti o'qituvchisi.*

### Annotatsiya

Ushbu maqolada ayollar ish bilan bandligini ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solishning turli mexanizmlari, ularning ish faoliyati bilan bandligini davlat boshqaruvidan tartibga solib borish choralari hamda vositalarini aniqlab, iqtisodiyotning real talablaridan kelib chiqqan holda, ayol va qizlar samarali ish bilan bandligini ta'minlashni takomillashtirishga doir tavsiyalar taklif qilingan.

### Kalit so'zlar:

*ayollar ish bilan bandligi, ishsizlik, ishchi kuchiga talab va taklif, ijtimoiy mexanizmlar, masofaviy mehnat, tadbirkorlik.*

Email: [dilafruznabuxujayeva@gmail.com](mailto:dilafruznabuxujayeva@gmail.com)

©2025. Nabixo'jayeva Dilafro'z

Published by Fast support and result LLC. This is an open access article under the CC BY-NC-ND license



[Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License.](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/)

## Kirish

Jahonda 30,5 foizdan ziyod oila shaxsiy daromadlarining asosiy manbai bo'lgan ayollarning ish haqi hisobiga yashaydi, Yevropada 60,5 foiz oilada xotin-qizlarning daromadlari byudjetning yarmini yoki undan ko'prog'ini tashkil etadi. Jahonning 142 davlatida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga qaraganda ayollarning 29,0 foizi ish xaqi to'lanadigan ishda, 41,2 foizi oila a'zolariga g'amxo'rlik qilish hamda ish bilan band bo'lish, faqat 27,5 foiz ayollar esa ish bilan band bo'lishni istamaydilar» [1].

O'zbekiston mustaqillik yillarida gender tengligi va ayollar huquqlarini himoya qilish borasida bir qator ijobiy natijalarga erishdi. Ammo, ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki hali-hanuz erkaklarga nisbatan past darajada qolmoqda. Bu holat iqtisodiy imkoniyatlarning to'liq amalga oshmasligiga sabab bo'lmoqda.

Globalashuv davrida ayollar ishsizligi muammosi, uning o'ziga xos xususiyatlari umumiy ijtimoiy siyosatda bu boradagi yo'nalishlar va ustuvorliklarni ishlab chiqishni taqazo qiladi. Chunki jahonning ko'pchilik mamlakatlarida ayollar ijtimoiy diskriminatsiyasi asosida ularning erkaklar bilan ijtimoiy tengsizligi ifodalanadiki, mazkur o'zgarishlar umumiy ishlar sonida ayollar salmog'ining oshib borishida ham ifodalanadi.

## Asosiy qism

Mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faolligini o'rganish iqtisodchi olimlarning doimiy diqqat markazlarida bo'lgan, jumladan, MDH davlatlari olimlaridan L.S.Rjanisyaning fikricha [2] «Ayol-ona, ishchi, xodim va uy bekasi, bu ikki taraflama og'irlikni birga qo'shib

olib borish uchun ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozim bu jarayonni gender tengligi darajasida o'rganib, nafaqat ijtimoiy ishlab chiqarishda ish bilan bandlik balki, ularning oilaviy muammolar, bolalar tarbiyasi bilan mashg'ulligini yengillatish kerak».

Akademik Q.X.Abdurahmonovning e'tirof etishicha [3] «Ish bilan bandlik deganda ijtimoiy ishlab chiqarishda mehnat faoliyati bilan shug'ullanish anganilsa, ayollarga nisbatan esa bu «ikki taraflama ish bilan bandlik», ya'ni ularning ijtimoiy ishlab chiqarishda, shuningdek oilaviy maishiy sohada bandligi nazarda tutiladi» deb e'tirof etgan. Ammo milliy mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faolligi erkaklarga qaraganda nisbatan pastroq. Uning asosiy sababi ayollar ko'proq uy yumushlarini bajarishga va bolalarni parvarishlashga e'tibor qaratishadi. Ish bilan band ayollarning ma'lumot darajasi erkaklarnikidan yuqoriroq bo'lsa ham, ayollar jamlagan inson kapitalidan to'g'ri foydalanishni bilmaganligi, mehnat munosabatlari sohasida gender tengsizligiga uchramoqdalar [4].

Shuningdek, ma'lumot darajasi hamda kasbiy-malaka tayyorgarligi zamonaviy sharoitlarga mos hamda xos bo'lgan ayollarni iqtisodiyotning transformatsiya davri kechayotgan sharoitda hozirgi shart-sharoitlarga to'laligacha ko'nikmaslik holatlari kuzatilmoqda. Bu esa maxsus mehnat tartibi va muayyan sharoitlar yaratish zarurligi ayol ishchi kuchiga bo'lgan talab kamayishiga sabab bo'lmoqda, natijada ayollar ishsizligi ortib bormoqda. Shu bilan birga jiddiy salbiy iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlar ishchi kuchining to'liq ish bilan band bo'lmasligi jamiyat uchun katta iqtisodiy va ijtimoiy yo'qotishlarga sabab bo'lmoqda. Ana shunday sharoitda

iqtisodiyotni rivojlantirishni zamonaviy tendensiyalarining eng muhim makroiqtisodiy xususiyati sifatida ayollar ish bilan bandligini davlat tomonidan tartibga solish choralari va vositalarini takomillashtirish

muammolarini o'rganish dolzarb hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasida ishsizlar soni jinsiy tarkibining o'zgarishiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (1-jadval).

### 1-jadval

#### O'zbekiston Respublikasida ishsizlar soni jinsiy tarkibining o'zgarishi, ming kishi

Ko'rsatkichlar	2013 y.	2015 y.	2017 y.	2019 y.	2021 y.	2023 y.	2023 y.da 2013 y.ga nisb. %da
<b>Jami ishsizlar soni, shundan:</b>	658,2	626,3	687,0	724,0	1368,6	1561,1	114,0
ayollar	353,4	275,4	301,5	317,5	722,2	899,2	124,5
erkaklar	304,8	350,9	385,5	406,5	646,4	661,9	102,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2023 yilda 2013 yilga nisbatan mamlakatda jami ishsizlar soni 114,0 %ga ortgan. O'z navbatida, ayollar orasidagi ishsizlar soni 2023 yilda 2013 yilga nisbatan 124,5 %ga ortib borgan. Tahlil natijalariga asoslanib, aytish mumkinki, ishsiz ayollarning ish bilan bandligini ko'paytirish hamda bu boradagi yuzaga keladigan muammo, to'siqlarni sonini kamaytirish borasida ish bilan bandlik sohasida davlat miqyosida maqsadli dasturlarni ishlab chiqish uchun ishsiz ayollarning aniq guruhlarini aniqlab, ularning ish bilan bandligini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni tadbir etish kerak

Shuni aytish kerakki, yurtimizda ayollarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha muvofiqlashtirilgan ishlarni amalga oshirish, bandlik dasturlarini ishlab chiqishga zamonaviy yondashuvlarni kengaytirish kabi masalalarga alohida e'tibor berilmoqda.

Yangi O'zbekistonda ayollarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish, ayollar bandligini oshirish, ularga munosib mehnat sharoitini yaratish yuzasidan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek [5] "Mamlakatimizda xotin-qizlarni ish o'rinlari, uy-joy bilan ta'minlash hamda ularga tibbiy xizmat ko'rsatish borasidagi sifatini yanada yaxshilash masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Bu borada ayollarni kasb-hunarlariga qayta o'qitish markazlari tadbir etilgani, arzon uy-joylar dasturi amalga oshirilayotgani muhim ahamiyatga kasb etadi".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martda "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-81-son farmoni va "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida PQ-146-son qarorida oila institutini mustahkamlash

va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy tendensiyalarining amalga oshirish. Aynan shu qonunchilik hujjatlarida xotin-qizlarning ta'lim shunidek kasbiy ko'nikmalar olishlari, o'zlari uchun kerakli topishlariga bor imkoniyatlari binoan ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, yetakchi yosh xotin-qizlarni aniqlash shu bilan birga ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'nalish berish, gender tenglikni ta'minlash siyosatini hayotga joriy etish, ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ayollarni qo'llab-quvvatlashga oid islohotlarni amalga tadbiriq etish, hududlarda, ayniqsa, olish joylardagi xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sohasidagi sifatni hamda bu sohalar orasidagi sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar ko'lamini oshirish belgilangan o'tilgan.

Shu bilan birga, yashash uchun uylarga muhtoj ayollarni uy-joy bilan ta'minlash, turmush hamda hayot tarzini yaxshilash, daromadlarini ko'paytirish borasida chora-tadbirlarni belgilash, og'ir ijtimoiy ahvolga muhtoj qolgan ayollarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni «Ayollar daftari» orqali manzilli qo'llab-quvvatlash, jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq hamda zo'ravonlikka qarshi nisbat muhitini yaratish, ayollarning huquq hamda erkinliklarini ta'minlash shu bilan birga oilaning ta'lim-tarbiyaviy salohiyatini yanada mustahkamlash, jamiyatda oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash hamda ularning farovonlik darajasini taminlash hamda belgilab berilgan jabhalarni tadbiriq etish kerak.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2021-2030 yillarda aholi bandligiga ko'maklashish

Strategiyasi belgilangan bo'lib, uning asosiy maqsadi bandlik ko'lamini kengaytirish va munosib mehnat sharoitlarini yaratish orqali mehnat bozorlari faoliyatining barqarorligini oshirishga ko'maklashishdan iborat. Bunga 2021-2025 yillarda Strategiyada belgilangan ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish uchun huquqiy, tashkiliy, axborot ta'minoti bilan bog'liq va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratish orqali erishiladi.

Bandlik hamda mehnat munosabatlari vazirligi ish bilan ta'minlanmagan fuqarolarga, binonarin xotin-qizlarni ishni jalb qilish borasida ko'rsatiladigan xizmatlar sohalarini yanada kattartirish borasida tizimli faoliyatlarni hayotga tadbiriq etmoqda.

Mehnat organlari birga hamkorlikda faoliyat olib borayotgan hamda ko'rsatiladigan bandlik xizmatlari shu bilan mahalladagi ishsizlar sonini, mehnat organlariga yo'llanma orqali bo'sh (vakant) ish joylariga ishga joylashtirishga ko'maklashiladilar;

mehatga haq to'lashga qobiliyati bor ish o'rinlariga jalb qilingan har bir fuqaroga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini 1 barobaridan 2 barobar miqdorgacha haq to'lanadi (1,271 ming so'mdan - 2,542 ming.so'mgacha) Ishsiz fuqarolarga nisbatab kasbga o'qitish amalga oshiriladi, qayta tayyorlanadi va malakasini oshiriladi shu o'rinda o'qish davrida stipendiya to'lanadi (616,5 ming so'mdan-822 ming.so'mgacha);

- ishsiz shaxslar kasbga o'qitiladi, qayta tayyorlanadi va malakasini oshiriladi hamda o'qish davrida stipendiya to'lanadi (616,5 ming so'mdan-822 ming.so'mgacha);

- tadbirkorlik qilishni xohlovchilarga - ro'yxatdan o'tish, tadbirkorlikka o'qitish va kredit olishda

sug'urta polisi to'lovi uchun BHMning 10 baravarigacha miqdorida subsidiya ajratiladi (30 mln.so'mgacha);

- tikuvchilik, hunarmandchilik, asalarichilik, baliqchilik, quyonchilik, parrandachilik va boshqa qishloq xo'jaligi birlashmasi kooperativga har bir a'zo bo'lgan ishsiz fuqaroning ulushi uchun BHM ning 15 baravari miqdorida subsidiya ajratiladi (4,05 mln.so'mgacha);

- aholi bandligiga ko'maklashish markazi tomonidan quyidagi subsidiyalar ajratiladi: yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish uchun – BHM ning 30 baravarigacha (8,1 mln.so'm), sug'orish vositasi xarid qilish uchun – BHM ning 10 baravarigacha (2,7 mln.so'm), urug'liklar va ko'chatlar sotib olish uchun – BHM ning 3 baravarigacha (810,0 ming.so'm).

#### **Xulosa**

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mehnat bozorida xotin-qizlarning faol samaradorligini amalga oshirishning strategik konsepsiyasini taklif ilmoqdamiz. Bunda bosh maqsad sifatida ayollar ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha asoslangan tashkiliy tadbirlar tadbiriq qilish, mehnat sohasida gender tenglikka joriy qilish, mehnatga layoqatli xotin-qizlarning oqilona ish bilan bandligini oshirishga yo'naltirilgan kompleks faoliyatni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi deb takidlab o'tishimiz lozim.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Towards a better future for women and work: Voices of women and men. MOT Preventing Discrimination, Exploitation and Abuse of Women Migrant Workers: An Information Guide, 2017. DOI: <http://dx.doi.org/10.1017/S1365100500656>

2. Rjanisyna L.S. Женщины и рынок труда. М.: Политиздат, 2000. -75-76 s.

3. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. Darslik. -T.: Fan va texnologiya, 2012. -129-140 b.

4. Irmatova A.B.«Innovatsion iqtisodiyotda ayollar mehnatini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish» mavzusidagi i.f.d.ilmiiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Toshkent, 2021. 17-18 b.

5. Mirziyoyov Sh. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda\\O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Yangi O'zbekiston" gazetasiga bergan interyusi 17.08.2021\\

<https://president.uz/uz/lists/view/4547>

6. Kamolov D., Ismoilova D. RAQAMLASHTIRISHNING O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 301-306.